

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Xolmurodova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“Lingvistika” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'y-xatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadieva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Kholmuradova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors’ ideas may differ from those of the editors’.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Болат Қалыбеков

Қазақ терминологиясының кейбір өзекті мәселелері.....6

Замира Абдужаббарова

Экономия речи в когнитивных и национально-культурных особенностях речевой компетентности в английском и узбекском языках.....27

Marhabo Umurzoqova

Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi36

Iqbol O'razova

Mental leksikonda so'zlarning saqlanishi.....44

Dilfuza Shonazarova

Diskurs tahlilning o'ziga xos xususiyatlari57

Sherzod Atamuradov

O'zbek va turk tillarida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar66

Mahliyoxon Tuxtasinova

L. Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'ati uchun asos bo'lgan manbalar.....88

Lobar Qambarova

Tilshunoslikda afaziya tasnifi112

Go'zal Mirzayeva

O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili.....125

Kamola Abdulloyeva

Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati..... 132

Xayriniso Mamirova

So'z ma'nosini o'zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog'liqligi...144

Nafisa Arolova

Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar157

Shirinoi Muhsinjonova

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida sut mahsulotlariga doir leksemalarning aks ettirilishi171

Qudratillo Bakirov

"Devonu lug'otit-turk" da qo'llangan vaqtni nomlovchi leksik birliklarning hozirgi turkiy tillar iste'mol qatlamidagi o'рни.....181

CONTENT

Linguistics

Bolat Kalybekov

Some specific issues of Kazakh terminology6

Zamira Abdujabbarova

Speech economy in cognitive and socio-cultural aspects of speech competence in English and Uzbek languages27

Markhabo Umurzakova

Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character ...36

Ikbol Urazova

Preservation of words in the mental lexicon44

Dilfuza Shonazarova

Peculiarities of discourse analysis57

Sherzod Atamuradov

Linguistic factors that create a pragmatic barrier in Uzbek and Turkish languages66

Mahliyoxon Tuxtasinova

Sources that are the basis for the dictionary “Sravnitelnyy slovar turetsko-tatarskikh narechiy” by L. Budagov.88

Lobar Kambarova

Classification of aphasia in linguistics112

Go‘zal Mirzayeva

Comparative analysis of the phenomenon of synharmonism in Uzbek and Turkish languages125

Kamola Abdulloyeva

The importance of figurative expressions in reflecting the author’s modality132

Xayriniso Mamirova

Relationship of word meaning acquisition with gender and age characteristics.144

Nafisa Arolova

Methods aimed at improving the cognitive skills of students in language education.....157

Shirinoy Muhsinjonova

Representation of lexemes related to milk products in Mahmud Koshgari’s work “Devonu lugatit-turk”171

Kudratillo Bakirov

The use of tense lexemes used in “Devonu lugatit-turk” in modern Turkic languages181

O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili

Go'zal Mirzayeva¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasi ilmiy tahlil qilingan va ikki tildagi qiyosi yoritilgan. Shuningdek, turk tilida singarmonizm hodisasining tilshunoslar tomonidan turlarining talqin qilinishi va nomlanish terminlarini ko'rib chiqilgan va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Singarmonizm, labial singarmonizm, turkiy tillar, palatal singarmonizm, fonetik hodisa.*

Ma'lumki o'zbek va turk tillaridagi asosiy farqli holatlar fonetikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Singarmonizm qonuniyati deyarli barcha turkiy tillarda amal qiladi. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni mavjudligini birinchi bo'lib XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy ta'kidlagan. Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning o'zak xarakteriga qarab, qattiq o'zakli so'zlarga qattiq affikslar, yumshoq o'zakli so'zlarga yumshoq affikslar qo'shilishi haqida aytgan [Mahmud Koshg'ariy 1963, 202].

Alisher Navoiy asarlari tili fonetikasini o'rgangan A.Rustamov shunday deydi: "Navoiy tilida ham singarmonizm qonunlari mavjud. Alisher Navoiy "Xamsa"sining Abduljamil nusxasi bizni XV asr o'zbek adabiy tilida singarmonizmning har uchchala qonuni, ya'ni unilardagi tanglay uyg'unligi, lab uyg'unligi hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi bor", degan xulosaga olib keldi" [Rustamov 1966, 148-149].

Biroq o'zbek adabiy tilida ushbu qonuniyat amal qilmasligi va buning sababi haqida ko'plab fikrlar mavjud. Avvalo, singarmonizm terminiga to'xtalib o'tsak.

Turk tilida *ses uyumu* o'zbek tilida *tovushlar uyg'unligi* yoki *singarmonizm* deb ataladigan ushbu fonetik jarayon haqida tilshunos Q.Mahmudov shunday deydi: "Turkiy tillarda unli, undosh tovushlar uyg'unligi o'zak so'zlarning xarakteri bilan bog'langan,

¹ *Mirzayeva Go'zal Qobuljonovna* – ToshDO'TAU tayanch doktoranti

E-pochta: ummuabdumannon@gmail.com

Iqtibos uchun: Mirzayeva, G.Q. "O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2023-2: 125-131.

tovushlar uyg'unligi turkiy tillarda tarixan va hozir ham mavjud fonetik hodisadir. Singarmonizm hodisasi, asosan, unli, undosh tovushlarga nisbatan progressiv assimilyatsiya asosida vujudga kelgan, singarmonizm hodisasi hozirgi bir guruh turkiy tillarda to'la aks etgan bo'lsa, bir guruh turkiy tillarda kuchsizroq xususiyatga ega" [Mahmudov 1990].

I.A.Boduen de Kurtene o'z asarida singarmonizm qonuni faqat agglyutinativ tillar (O'rol-Oltoy), xususan, turkiy tillargagina xos bo'lmay, balki flektiv tillardan slavyan tillariga ham tegishlidir, degan fikrni olg'a surgan [Boduen de Kurtene 1902-1904, 48-51]. Akademik V.V.Radlov ham bu fikrni qo'llab quvvatlagan [W.W. Radloff 1882-1883].

U.Tursunov va X.Daniyarovlarning "O'zbek tilidagi sinarmonizm haqida" deb nomlangan maqolasida shunday yoziladi: "Singarmonizm qonuni turkiy tillarning hammasida bab-baravar tekis ravishda uchramaydi, balki ularning har qaysisida har xil darajada uchraydi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida esa singarmonizm hodisasi deyarli uchramaydi" [Tursunov, Daniyarov 1959, 37-44].

Q.Mahmudov esa bu fikrning aksini aytadi: "Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham *bo'liq, yo'liqdi, qoniqdi, uchun, butun* kabi so'zlarda tanglay va lab garmoniyasining ta'siri saqlangan. O'zbek tili shevalarida singarmonizm qonunining ta'siri adabiy tilga nisbatan saqlangan" [Mahmudov 1990, 202-203].

Tilshunos J.Xudoyberdiyev "Qatag'on qilingan tovushlar qismati" maqolasida o'zbek tilida yillar davomida bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan singarmonizm hodisasini o'rganib, o'z xulosasini shunday bayon qiladi: "Shunday qilib, 1930-yilga qadar mahalliy olimlarning barchasi o'zbek adabiy tilida singarmonizm rioya qilishi tarafdori bo'lgan. Y.Polivanov ularga qat'iy ravishda qarshi chiqqan. 30-yillardan keyin esa mahalliy olimlar qarashlarida ham o'zgarish paydo bo'lgan. Ular endi yangi o'zbek adabiy tilini yaratish, singarmonizmning yo'qolishi, unilarning qisqarishi to'g'risida fikr bildira boshlaganlar" [Xudoyberdiyev 2023, 2-5].

I.Azimov hamda B.Mengliyevlar jadidlar davridagi unililar va singarmonizm haqidagi maqolalarida, o'sha davrdagi jarayonni atroflicha o'rganib chiqib, maqola so'ngida shunday xulosa qilishadi: "Jadidlarning mana bunday sog'lom tortishuv, munozaralariga 30-yillarning oxiriga kelib chek qo'yildi. Birinchidan, juda ko'pchiligi jismonan yo'q qilindi, ikkinchidan, 1940-yilda kirill yozuviga

o'tilgandan so'ng olti unlili alifbo qabul qilindi. Bu mavzuga murojaat qilish ta'qiqlandi. Shu davrdan boshlab boshqa turkiy tillardan farqli ravishda tilimizda asrlar davomida saqlanib kelingan unlilar uyg'unligi inkor qilindi" [Azimov, Mengliyev 2023, 152].

Tilshunos S.Jalilov hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizmning o'z mavqeyini ancha yo'qotganligini ta'kidlab shunday misollar keltiradi. Qiyos qiling: konlunuz (eski o'zbek tilida) – ko'nglingiz (hozirgi o'zbek adabiytilida), korup (eski o'zbek tilida) – ko'rib (hozirgi o'zbek adabiy tilida) kabi. So'ng quyidagicha izoh beradi: "Singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o'g'uz dialektlariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: olgan (adabiy tilda) – alg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), borgan (adabiy tilda) – barg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), kelgan (adabiy tilda) – kelgan (qipchoq lahjasi shevalarida), o'ttiz (adabiy tilda) – o'ttuz (qipchoq lahjasi shevalarida), uyimga (adabiy tilda) – uyuma (o'g'uz lahjasi shevalarida) kabi" [Jalilov 2011, 9].

Demak, o'zbek tilida ham barcha turkiy tillardagi kabi singarmonizm hodisasi mavjud bo'lgan va hozirgi kunda ba'zi shevalarda saqlanib qolganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: ələštirmək (Xorazm) – ayblamoq, ələštirmədilə (Urganch) ushbu so'zda old qator va ingichka unlilar birga kelgan (turk tilida esa eleštirmek so'zi tanqid qilmoq degan ma'noni anglatadi va turk tili hamda Xorazm shevasi o'g'uz lahjasiga oid bo'lgani uchun o'xshashlikni ko'rish mumkin); bashovlamaq (G'arbiy Farg'ona) – bog'lamoq, ushbu so'zda esa orqa qator qalin unlilar birgalashib kelgan; g'o'lunob (Buxoro) – qaynatma o'rik, bu so'zda esa orqa qator lablangan unlilar birgalashib kelgan, yunul (Urganch, Xonqa, Hazorasp) – yengil bu so'zda esa old qator lablangan ingichka unlilar birga kelib singarmonizm hosil qilgan [O'zbek xalq shevalari lug'ati 1971]. Shevalarimizda esa bunday so'zlarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Turk tili turkiy tillarning singarmonizmga amal qiladigan tillaridan hisoblanadi. Gunay Karaag'ach "Türkçenin Ses Bilgisi" (Turk tili fonetikasi) [Karaag'ach 2018, 117-120] kitobining ikkinchi bobida turk tili fonetikasining o'ziga xosliklarini yoritir ekan avvalo singarmonizm hodisasiga to'xtaladi. Olim singarmonizm terminini turk tilida "uyum" deb termini bilan beradi va bu so'zning standart muqobillari sifatida harmony, accommodation, congruence, concord, adaptasion so'zlarini keltiradi. Singarmonizmning turk tilidagi ko'rinishlarini shunday izohlaydi:

"Turk tilida singarmonizmning unlilar singarmonizmi,

undoshlar singarmonizmi hamda unli va undosh singarmonizmi kabi uch turi mavjud”.

1. Unli – unli uyg'unligi (vowel-vowel harmony) turk tilida unlilar orasida

yuzaga keladigan singarmonizm hisoblanadi.

a. Qalin-ingichka (old-orqa qator) uyg'unligi – palatal singarmonizm

hisoblanadi. Masalan: *yol-suz-luk*, *sor-gu-la* so'zlarida faqat orqa qator qalin unlilar kelgan bo'lsa, *becer-i-k-siz*, *gör-me-miş-ti* kabi so'zlarida esa old qator, ingichka unlilar ishtirok etgan.

b. Labial singarmonizm ham ikki turga bo'linadi. Birinchisida old qator

lablangan unlilar ishtirok etadi. Masalan: *üzüm-ü-n-ü*, *dörd-ü-n-c-ü-s-ü*.

2. Undosh- undosh uyg'unligi (consonant harmony) – undoshlarning

undoshlar bilan birga singarmonizm hosil qilishidir. Bunda *p*, *ç*, *t*, *k*, *h*, *s*, *ş* undosh tovushlarining birgalikda kelishi va asos so'zlarga qo'shilayotga qo'shimchalarda ham birga kelishiga aytiladi: *git-ti*, *aş-çı*, *börek-te* kabi.

3. Unli undosh uyg'unligi (vocal-consonant harmony) ning turk tilida ikki turi mavjud. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra uyg'unlik: Turk tilida old qator unlilar ham undoshlar ham mavjud bo'lib, old qator unlilarning old qator undoshlar bilan kelishini ko'rish mumkin:

$\acute{g}/\acute{k}/\acute{h}/\acute{n}/\acute{ğ}/l + a/ı/ o/u$ orqa qator (qalin) unlilar

$g/k/h/n/ğ/l - e/i/ü/ö$ old qator (ingichka) unlilar

Unli undosh singarmonizmining ikkinchi turi hosil bo'lish shakliga ko'ra yuz berib, unlilarning o'rtasida kelgan undosh yumshaydi. O'zbek tilida oxiri *-k,-q* tovushlari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asos tarkibidagi jarangsiz tovush jarangli tovushga almashadi: *buloq+i-bulog`i*, *yurak+i-yuragi*, *tilak+i-tilagi*, *bilak+i-bilagi*. Lekin bu fonetik jarayonning o'zbek tilida singarmonizmga dahli yo'q. Biroq tilshunos Gunay Karaag'ach jarangsiz undoshlarning ikki unli o'rtasida jaranglilashishi jarayonini singarmonizm sifatida keltiradi: "Jaranglilashish hodisasi bo'lgan bu tovush o'zgarishi unli undoshni o'ziga moslashtiradi, unli+jarangsiz undosh+unli yoki jarangli undosh+jarangsiz undosh+unli tartibidagi jarangsiz *p*, *ç*, *t*, *k* undoshlari jaranglilashib yonlaridagi unli tovushlarga moslashadi: *kanat>kanadı*, *ağaç> ağaca*, *konak>konağa*, *köpek>köpeği*, *çorap>çorabı*.

Taniqli turk tilshunosi Muharrem Ergin esa o'zining

maqolasida singarmonizm haqida shunday deydi: "Tilning o'ziga xos estetik xususiyatlarini tashkil etuvchi bu mashhur fonetik jarayon grammatika kitoblarida garmoniya nomi ostida tanglay uyg'unligi (dil benzeşmesi) va lab uyg'unligi (dudak benzeşmesi) kabi ikki guruhga bo'linadi.

Tanglay uyg'unligida turkcha so'zlarning birinchi bo'g'inidagi qalin unlini qalin unlilar bilan, ingichka unlilarni esa ingichka unlilar bilan kelishi holatidir: *anla-, anlaş-, kapak, uzak, yakın, sıcak, soğuk, olay, kolay; elek, yelek, bilgi, silgi, bölüm, ölçü, üleş-, ülkü* kabi. Bu hodisada o'zgarish va singarmonizm *a, ı, o, u* va *e, i, ö, ü* kabi qalin va ingichka unlilar orasida ro'y beradi" [Korkmaz 2018, 6-8].

Tilshunos Z.Korkmaz boshqa tilshunoslardan farqli ravishda labial singarmonizmni bir necha turlarini keltiradi.

Labial singarmonizm tovushlarning lablangan va lablanmaganligiga ko'ra moslashuvchi tovush hodisasidir. Quyidagi turlari mavjud:

a) *kaçak, saçak, tarak, yanak; elek, esmek, kesmek, yemek* misollarida ko'ringani kabi tor- keng unlilarning;

b) *İlik, kırık, kısık, yastık; iki, ilik, için, işit-* misollarida ko'ringani kabi lablanmagan- tor unlilarning;

c) *açık, alın, kalın; delik, kesik, yenik* va h.k. misollarida ko'ringani kabi lablanmagan- keng, lablanmagan - tor unlilarning;

j) *bıçak, sıcak, yılan; ile, dilek, işler* misollarida ko'ringani kabi lablanmagan- keng, lablanmagan - tor unlilar bilan birga kelishi;

Bu mavzuga lablangan va lablanmaganlik jihatdan qaraladigan bo'lsa qalin lablanmagan unlilarni qalin lablangan unlilar bilan kelishi: *uslu, uzun, ulu, kuzu* kabi; ingichka lablanmagan unlilarning ingichka lablangan unlilar bilan kelishi: *ünlü, üzüm, üçlü göçük, ölüm, ölçü*.

f) ba'zi o'rinlarda esa unlilarning faqat lanlangan va lablanmaganlik holati ahamiyatli sanaladi: *Bucak, kucak, uçak, yulaf, kulak; üçgen, üleş-* misollaridagi kabi qalin lablangan unlilarni qalin lablanmagan, ingichka lablanmagan unlilar ingichka lablangan unlilar bilan birga kelgan. *Oda, orman, olay* misollarida esa qalin lablangan unlilar bilan qalin lablanmagan unlilar birga kelgan.

Turktilshunoslari N.Demir va E.Yilmaz laresa G.Karaag'achning fikrlariga zid ravishda unlilar singarmonizmi faqat unlilarning bir-biriga ta'siri oqibatida yuzaga kelishini, undoshlar singarmonizmida esa unlilarning qisman roli bo'lsa-da, bu hodisa faqat undoshlarning o'zaro ta'siri orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydilar [Demir, Yilmaz 2018, 57-61]. Shu bilan birga tilshunoslar tanglay (palatal)

uyg'unlikni "Önlük-Artlık Uyumu" va labial uyg'unlikni "Düzlük-Yuvarlaklık Uyumu" terminlari bilan berishgan. Singarmonizmga bo'ysunmaydigan holatlarda esa ba'zi asl turkcha so'zlarning ham bo'lish sababi sifatida qo'shimchalarning bir xil shaklda ekani deb beradi: *yaparken, geliyor, bastaki* kabi. Bu qo'shimcha grammatik shakl o'zgartiruvchi qo'shimchalardir, shu bilan birga so'zning ma'nosini o'zgartiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha ham bo'lishi mumkin. Singarmonizmga bo'ysunmaydigan bir bo'g'inli qo'shimchalar old yoki orqa qator unilardan iborat bo'lishi mumkin. Orqa va old qator unidan iborat bo'lgan *-yor, ken, -man, -ki, -imtirik, -leyin, -dash* qo'shimchalari singarmonizmdan tashqari muhim sabablaridan biri esa ba'zi so'zlarning tarixiy taraqqiyot mobaynida singarmonizmga amal qilmaydigan holga kelishidir.

Olim M.Masuro'g'li esa turk tilida singarmonizmning olti turini keltirib o'tadi. Tilshunos singarmonizmning standart turk tili bilan shevalar orasidagi singarmonizmni tahlil qiladi va tovushlarning uyg'unlashish holatiga qarab turlarga ajratib chiqadi [Mansuro'glu 1959, 83-93].

Yuqorida o'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasini biroz bo'lsa-da o'rganib, tahlil qilish va ikki tilda qiyoslash asnosida shunday xulosaga keldikki, o'zbek tilida singarmonizm hodisasi taxminan XX asrning boshlariga qadar amalda bo'lgan va keyinchalik bu hodisa adabiy tilda yo'qola borgan, biroq hozirgi kunda ham shevalarimizda singarmonizm hodisasi mavjud ekanini misollar orqali keltirdik. Turk tili ba'zi istisno holatlardan tashqari singarmonizmga ham unilar hamda undoshlar jihatidan to'liq amal qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Turk tilshunoslari tomonidan singarmonizmning turlari turlicha talqin qilinganini ko'rishimiz mumkin. Singarmonizmning ikkitadan beshtagacha turi o'rganib chiqilgan va adabiyotlarda nomlanish atamalarining ham xilma-xilligini ko'rish mumkin. O'zbek tilidan chiqarilgan ba'zi unilarning qaytarilishi singarmonizm hodisasining qayta tiklanishi uchun muhim omil bo'ladi degan fikrdamiz.

Comparative analysis of the phenomenon of synharmonism in Uzbek and Turkish languages

Go'zal Mirzayeva¹

Abstract

In the article, the phenomenon of synharmonism in the Uzbek and Turkish languages is scientifically analyzed and the comparison between the two languages is highlighted. Also, the interpretation of the synharmonic phenomenon in Turkish by linguists and the naming terms are considered and examples are given.

Key words: *Synharmonism, labial synharmonism, Turkic languages, palatal synharmonism, phonetic phenomenon.*

References

- Mahmud Koshgariy. 1963. *Devonu Lugotit Turk*. Toshkent: Fan
- Rustamov, A. 1966. *Navoiy asarlarining fonetik- morfologik xususiyatlari*. Filol.fan.dok. diss Toshkent.
- Mahmudov, Q. 1990. *XIII-XIV asr yozma obidalar tilining fonetik sistemasi*. Toshkent: Fan.
- Бодуен де Куртене. 1904-1902. Срежнителна грамматика славянских языков в связи с другими Индоевропейскими языками,
- W.W. Radloff. 1882-1883. *Phonetik der nordlichen Turksprachen*.
- Tursunov, U., Daniyarov, X. 1959. *A.Navoiy nomidagi O'zbek davlat universitetining asarlari*. Samarqand.
- Xudoyberdiyev, J. *Ma'rifat gazetasi*. 2023-yil 1-mart, № 9(9438).
- Azimov, I., Mengliyev, B. 2023. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023. 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(7).
- Jalilov, S. 2011. *Hozirgi o'zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya)*. Nukus.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.
- Karaağaç, Ğ. 2018. *Türkçenin Ses Bilgisi*. İstanbul.
- Korkmaz, Z. 2018. *Ses Bilgisi Özelliklerinin Dilimizin Estetik Yapısındaki Etkileri Üzerine*. Türk Dili.
- Demir, N., Yılmaz, E. 2018. *Türkçe Ses Bilgisi*. Anadolu Üniversitesi.
- Mansuroğlu, M. 1959. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı*. Belleten.

¹ Go'zal K. Mirzayeva – TSUULL basic doctoral student.

E-mail: ummuabdumannon@gmail.com

For reference: Mirzayeva, G.K. "Comparative analysis of the phenomenon of synharmonism in Uzbek and Turkish languages". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 125-131.